O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA XATARLARNI ANIQLASH VA INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Shoraximova Zilola Nosirdjanovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti
“Ekonometrika va iqtisodiy modellashtirish” kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0000-1375-5574

ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В СТРАХОВОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА

Шорахимова Зилола Носирджановна
Преподаватель кафедры «Эконометрика и экономическое моделирование» факультета экономики Hatsіонального университета Узбекистана
ORCID: 0009-0000-1375-5574

PROSPECTS FOR IMPLEMENTING INTEGRATED RISK MANAGEMENT MECHANISMS IN THE INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

Shorakhimova Zilola Nosirdjanovna
Lecturer at the department of Econometrics and Economic Modeling, Faculty of Economics, National University of Uzbekistan
ORCID: 0009-0000-1375-5574

Annotasiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorida xatarlarni aniqlash va ularni samarali boshqarishning integratsiyalashgan mexanizmlarini joriy etish zarurati tahlil qilinadi. Sug‘urta kompaniyalarida risklar ko‘p qirrali va bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgani bois, ularni izchil va kompleks asosda boshqarish muhim hisoblanadi. Maqolada xalqaro tajriba va O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi mavjud muammolar tahlil qilinadi, shuningdek, integratsiyalashgan risk-menejment tizimini joriy etish istiqbollari, uning samaradorlikka ta’siri, tashkiliy-huquqiy va amaliy echimlar asosida yoritiladi. Statistik ma’lumotlar va amaliy tahlillar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta bozori, risk-menejmenti, xatarlarni aniqlash, integratsiyalashgan boshqaruv, samaradorlik, noaniq risklar, kompleks risklar, risklar transfarmatsiyasi.*

Аннотатsiя: *В данной статье анализируется необходимость внедрения интегрированных механизмов идентификатsiи и эффективного управления рисками на страховом рынке Узбекистана. Риски в страховых компаниях являются многогранными и взаимосвязанными, что требует их последовательного и комплексного управления. В статье рассматриваются международный опыт и существующие проблемы на страховом рынке Узбекистана, а также перспективы внедрения интегрированной системы риск-менеджмента, её влияние на эффективность, организатсионно-правовые и практические аспекты реализатсии. На основе статистических данных и прикладного анализа разработаны предложения и рекомендатsiи.*

Ключевые слова: *страховой рынок, риск-менеджмент, идентификатсия рисков, интегрированное управление, эффективность, неопределённые риски, комплексные риски, трансформатция рисков.*

Annotation: *This article analyzes the possibilities of using artificial intelligence in the insurance sector and its significance in the loss assessment process. Modern technologies enable insurance companies to implement fast and accurate assessment methods. The article also examines the mechanisms for automating claim processing, risk analysis, and compensation payments using artificial intelligence algorithms. The positive impact of artificial intelligence on increasing economic efficiency and improving customer service quality is highlighted. Additionally, potential issues arising during technological development and measures for their resolution are discussed. Artificial intelligence is the most optimal solution for developing methods to minimize the foreseeable losses of insurance companies.*

Keywords: *insurance market, risk management, risk identification, integrated governance, efficiency, uncertain risks, complex risks, risk transformation.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xatarlar bilan bog‘liq noaniqliklar va ularning ehtimoliy oqibatlari tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, moliya va sug‘urta sektorida bu kabi xatarlarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarish nafaqat kompaniyaning barqaror faoliyati, balki butun iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sug‘urta kompaniyalari o‘z faoliyatida moliyaviy, operatsiyaviy, texnik, huquqiy, strategik va boshqa turdagi kompleks xatarlarga duch keladilar. Shu bois, ularni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda,

tizimli va integratsiyalashgan yondashuv orqali boshqarish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xalqaro amaliyotda sug‘urta sohasida integratsiyalashgan risk-menejment (ERM – Enterprise Risk Management) tizimini joriy etish samarali boshqaruvning zamonaviy mexanizmi sifatida keng qo‘llanilmoqda. Bu yondashuv kompaniyadagi barcha turdagi xatarlarni bir butun tizim doirasida aniqlash, baholash, nazorat qilish va minimallashtirishga qaratilgan bo‘lib, har bir bo‘lim va funksiyalararo hamkorlikni kuchaytiradi. Shu orqali nafaqat risklar kamaytiriladi, balki ulardan kelib chiqadigan yangi imkoniyatlar ham aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda sug‘urta bozorini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha bir qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2021 yilda qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi yangi Qonun, Agentlik faoliyatining yangilanishi, xususiy sug‘urta kompaniyalarining soni ortishi hamda majburiy sug‘urtaning kengaytirilishi bozorda ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Biroq shunday taraqqiyotga qaramay, bozorda xatarlarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarishda hamon tizimli echimlarga ehtiyoj mavjud. Xususan, sug‘urta kompaniyalarida risklarni integratsiyalashgan tarzda boshqarish mexanizmi etarlicha shakllanmagan, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda raqamli echimlar etishmaydi, tahliliy madaniyat va ichki nazorat tizimi kamyob holda uchraydi.

Mazkur maqolada aynan mana shu muammolar nuqtai nazaridan chiqib, sug‘urta kompaniyalarida integratsiyalashgan risk-menejment tizimini joriy etish zarurati, uning amaliy va normativ asoslari, xalqaro tajribalar asosida O‘zbekistondagi joriy holat tahlili hamda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar ilmiy va amaliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi — O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi risklarni aniqlash va ularni samarali boshqarishda integratsiyalashgan yondashuvning o‘rni va istiqbollarini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Sug‘urta sohasida risklarni aniqlash va ularni samarali boshqarish kompaniya faoliyatining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Xususan, zamonaviy iqtisodiy sharoitda xatarlar tobora ko‘p qirrali va o‘zgaruvchan tus olayotgani sababli, ularni faqat alohida holda emas, balki integratsiyalashgan, ya’ni tizimli va bir-biri bilan bog‘liq holda boshqarish zarurati paydo bo‘la boshladi. Sugurta sohasidagi bunday muammolarni hal qilishda, bir nechta adabiyotlarni taxlil qilish zarur.

George E. Rejda'нинг “*Principles of Risk Management and Insurance*” asarida ta’kidlanishicha, sug‘urta faoliyatida xatarlar faqat tabiiy yoki moliyaviy omillar bilan emas, balki huquqiy, siyosiy va operatsion xatarlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu bois, muallif risklarni identifikatsiya qilishdan tortib, ularni baholash va transfer

qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni kompleks yondashuv asosida tashkil etishni taklif etadi. Shu bois muallif xar bir bo‘limda risklarni o‘lchash va baholash usullrini metdologik yondoshuvlar bilan taqdim etgan.

René Doff o‘zining “*Risk Management for Insurers*” nomli kitobida sug‘urta kompaniyalari uchun Solvency II reglamentlari doirasida kapitalni boshqarish va risklarni barqaror boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirib o‘tadi. Uning ta’kidlashicha, integratsiyalashgan risk-menejment nafaqat barqarorlikni ta’minlaydi, balki kompaniyaning umumiy samaradorligi va raqobatbardoshligini ham oshiradi.

Ortwin Renn'ning “*Risk Governance*” kitobida esa murakkab, noaniq va o‘zaro bog‘liq xatarlar sharoitida hamkorlikdagi qaror qabul qilish va xavflarni boshqarish usullari yoritilgan. Ushbu yondashuv O‘zbekiston sharoitidagi sug‘urta kompaniyalari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, zero bu bozorda ham xatarlar aksariyat holatlarda bir-biri bilan bog‘liq va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, Alexander Melnikov'ning “*Risk Analysis in Finance and Insurance*” asarida moliyaviy va sug‘urta sohalaridagi risklarni matematik va stoxastik modellar asosida baholash usullari keltirilgan bo‘lib, bu hozirgi kunda ekonometrik yondashuvlarning muhimligini ta’kidlaydi.

Xatarlarni aniqlash va ularni samarali boshqarish – sug‘urta faoliyatining eng muhim va ajralmas jihatlaridan biridir. Ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan manbalari orasida mahalliy olimlar tomonidan tayyorlangan adabiyotlar, jumladan, R. S. Azimov, A. L. Lelchuk, M. A. Mirsadikov, va B. R. Shamsuddinov tomonidan 2024 yilda nashr etilgan *“Risklarni boshqarish va sug‘urta”* nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma muhim ahamiyatga ega.

Mazkur asarda xatar tushunchasining mohiyati, ularni baholash, tasniflash, transfer qilish, diversifikatsiya va boshqarish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan keng yoritilgan. Mualliflar sug‘urta sohasidagi xatarlarning kelib chiqish manbalari va ularning kompaniya faoliyatiga ta’sirini aniqlash, ularni boshqarishning zamonaviy va integratsiyalashgan yondashuvlari haqida batafsil ma’lumot berganlar.

Qo‘llanmada ayniqsa qimmatli jihati shundaki, unda O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi mavjud xatarlar, ularning toifalari va hozirgi amaliyotda qo‘llanilayotgan boshqaruv usullari mahalliy misollar asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, huquqiy asoslar, ya’ni "Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunga tayanilgan holda, xatarlarni aniqlash va boshqarishdagi institutsional mexanizmlarga ham e’tibor qaratilgan.

Ushbu manba hozirgi tadqiqot mavzusining nazariy asoslarini mustahkamlab, sug‘urta kompaniyalarida integratsiyalashgan risk-menejment tizimini joriy etish zarurligini asoslab beruvchi muhim adabiyot hisoblanadi.

Ushbu adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, xatarlarni aniqlash, ularni turlarga ajratish, to‘g‘ri baholash va samarali boshqarish nafaqat kompaniya uchun moliyaviy

barqarorlikni ta’minlaydi, balki sug‘urta bozoridagi umumiy ishonch, raqobatbardoshlik va mijozlar ehtiyojlariga moslashish salohiyatini ham oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston sug‘urta bozorini barqaror va zamonaviy mexanizmlar asosida rivojlantirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston sug‘urta bozorida mavjud bo‘lgan asosiy risk omillarini aniqlash, ularning turlari va ta’sir doirasini baholash, shuningdek, ushbu risklarni samarali boshqarishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur tadqiqot orqali milliy sug‘urta sektorining barqarorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy xavfsizligini oshirishga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan.

Tadqiqotda miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, ularning kombinatsiyasi orqali mavjud risklarni aniqlash, ularning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish va boshqaruv mexanizmlarini baholash imkoni yaratildi. Miqdoriy yondashuv orqali sug‘urta bozorining asosiy statistik ko‘rsatkichlari (muomala hajmi, muzd turlari, qayta sug‘urtalash darajasi va boshqalar) tahlil qilindi. Sifatli yondashuv esa amaldagi qonunchilik, kompaniya hisobotlari va xalqaro tajriba tahliliga asoslandi. Tadqiqot davomida quyidagi risklarni boshqarish strategiyalari asosida takliflar ishlab chiqildi:

- Diversifikatsiya – sug‘urta portfelini turli sohalar va hududlar bo‘yicha taqsimlash orqali tavakkal darajasini kamaytirish.
- Qayta sug‘urtalash – katta xavfli sug‘urta shartnomalarini boshqa kompaniyalar bilan bo‘lishish orqali yukni kamaytirish.
- Risklarni baholash tizimlari – raqamli texnologiyalar, big data va analitik modellar yordamida xavflarni oldindan bashorat qilish va baholash.
- Ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish – korporativ boshqaruvda integratsiyalashgan risk menejmentni yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, xalqaro tajriba asosida moslashuvchan va innovatsion risk menejment tizimini joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. 2023 yilda bozorda faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlari soni 42 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich 35 taga kamaydi. Bu esa bozor konsolidatsiyasi va raqobatning kuchayishini anglatadi. Shuningdek, 2024 yilning yanvar-sentabr oylarida sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmi 7 trln so‘mga yetdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 18,6 foizga ko‘pdir .

Bu jarayonni chuqur tahlil qilish orqali ma’lum bo‘lmoqdaki, sugurta kompaniyalari ko‘p hollarda moliyaviy barqarorlik mezonlariga rioya qilmaslik hamda xatarlarni samarali boshqara olmaslik bilan bog‘liq muammolarga uchramokda. Ayniqsa, sug‘urta kompaniyalari uchun xavflarni aniqlash va ularni tizimli ravishda boshqarish salohiyati yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, ular bozorda barqaror faoliyat yuritish imkonidan mahrum bo‘ladi. Zamonaviy sug‘urta bozorida turli xavflarni (moliyaviy, operatsiyaviy, texnik, huquqiy va bozor xavflari) oldindan baholash, ularni minimallashtirish va moliyaviy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining tuzilishi[1]

1 -jadval

Sug‘urta bozori tuzilishi	2023 yil	2024 yil	O‘sish (+/-)
Sug‘urta tashkilotlari soni *shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha*	42 *8*	35 *5*	-16,7% *-37,5%*
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. So‘mda)	2 311 521	2 559 944	+10,7%
Sug‘urta brokerlari soni	8	11	+37,5%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug‘urta agentlari soni *shu jumladan yuridik shaxslar*	4 773 *1 543*	4 538 *1 494*	-4,9% *-3,2%*
To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni	27	25	-7,4%

integratsiyalashgan xavflarni boshqarish (ERM – Enterprise Risk Management) strategiyasining mavjud emasligi yoki samarasizligi ko‘p hollarda kompaniyalarning bankrotlik yoki faoliyatni tugatishiga olib keladi.

Shuningdek, sug‘urta kompaniyalari o‘z portfellarida xavfni diversifikatsiya qilishga yetarlicha e’tibor qaratmagani, sug‘urta mukofotlari va to‘lovlar o‘rtasidagi balansni saqlay olmagani hamda qayta sug‘urta (reynshurans) tizimini to‘g‘ri tashkil qilolmagani ularning bozordan chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu holat sug‘urta sohasida institutsional barqarorlikni ta’minlash uchun xavflarni boshqarish madaniyatini shakllantirish qay darajada muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sug‘urta mukofotlarining o‘sishi asosan umumiy ixtiyoriy sug‘urta xizmatlari hisobiga bo‘lib, ularning hajmi 23,1 foizga oshib, kompaniyalarga 6,4 trln so‘mni

[1] https://napp.uz/uz - O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi

keltirdi. Bunda mol-mulkni zarardan sug‘urtalash (+375 foiz), dengiz sug‘urtasi (+374 foiz) va yong‘in va tabiiy ofatlardan sug‘urtalash (+164 foiz) kabi turlar eng yuqori o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi .

Umumiy sug‘urta mukofotlari:[2]

2-jadval

Ko‘rsatkichlar	2024 yil	2023
	mln. so‘mda	mln. so‘mda
Jami	**7 013 977**	**5 912 201**
Umumiy sug‘urta sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, shu jumladan:	6 846 823	5 674 281
- majburiy sug‘urta	*432 088*	*461 552*
- ixtiyoriy sug‘urta	*6 414 735*	*5 212 729*
Hayotni sug‘urta qilish sohasidagi sug‘urta tashkilotlari, shu jumladan:	167 154	237 921
- majburiy sug‘urta	*37 329*	*21 278*
- ixtiyoriy sug‘urta	*129 825*	*216 642*

2024 yilda O‘zbekiston sug‘urta bozorida jami sug‘urta mukofotlari hajmi 7 013,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2023 yildagi 5 912,2 mlrd so‘m ko‘rsatkichiga nisbatan 18,6 foizga o‘sgani kuzatildi. Bu o‘sish sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj va ishonch darajasi oshganini hamda sug‘urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ko‘rsatadi.

Ushbu o‘sish asosan umumiy sug‘urta sohasi hisobiga ta’minlangan bo‘lib, 2024 yilda mazkur segmentdagi sug‘urta mukofotlari 6 846,8 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bu 2023 yildagi 5 674,3 mlrd so‘mga nisbatan 20,6 foizlik o‘sish demakdir. Ayniqsa, ixtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha o‘sish dinamikasi yuqori bo‘lib, ular bo‘yicha mukofotlar 2023 yildagi 5 212,7 mlrd so‘mdan 2024 yilda 6 414,7 mlrd so‘mgacha o‘sdi. Bu esa aholi va biznes sub’ektlari o‘rtasida sug‘urta madaniyatining shakllanishi va xavflarni oldindan boshqarishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, majburiy sug‘urta turlaridagi mukofotlar miqdorida nisbatan pasayish kuzatilgan — 2023 yilda 461,5 mlrd so‘m**,** 2024 yilda esa 432,1 mlrd so‘m**.** Bu holat qonunchilikdagi o‘zgarishlar, sug‘urtalanishi majburiy ob’ektlar soni kamayishi yoki ijro intizomining to‘liq ta’minlanmayotgani bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

[2] [2] https://napp.uz/uz - O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi

Hayotni sug‘urta qilish sohasida esa mukofotlar miqdorida pasayish kuzatilmoqda — 2023 yilda 237,9 mlrd so‘m**,** 2024 yilda 167,2 mlrd so‘m. Ayniqsa, ixtiyoriy hayot sug‘urtasi bo‘yicha tushumlar 40% dan ortiq kamaygan. Bu holat aholining moliyaviy savodxonligi yetarli darajada shakllanmagani va uzoq muddatli sug‘urta mahsulotlariga nisbatan ishonch pastligi bilan izohlanadi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar tahlilidan kelib chiqib, sug‘urta mukofotlari hajmini yanada oshirish va barqarorlashtirish uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur:

Xavflarni samarali boshqarish tizimlarini joriy etish — sug‘urta tashkilotlari o‘z portfellarini diversifikatsiya qilish, xavflarni to‘g‘ri baholash, qayta sug‘urta mexanizmlarini keng joriy etish orqali barqaror daromad oqimini ta’minlashlari mumkin.

Ixtiyoriy sug‘urta turlarini rag‘batlantirish — zamonaviy, moslashuvchan va segmentlarga yo‘naltirilgan sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish orqali aholi va tadbirkorlarning sug‘urtaga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Hayotni sug‘urta qilish sohasini rivojlantirish — moliyaviy savodxonlikni oshirish, soliq imtiyozlari, uzoq muddatli investitsion sug‘urta turlarini taklif qilish orqali mazkur segmentni kengaytirish mumkin.

Texnologik innovatsiyalardan foydalanish — raqamli platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt yordamida xavflarni tezkor baholash va mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatish orqali sug‘urta sektorida samaradorlikni oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda sug‘urta bozorining barqaror va tizimli rivojlanishi uchun xatarlarni aniqlash va ularni integratsiyalashgan boshqarish mexanizmlarini joriy etish muhim zaruratga aylangan. O‘tkazilgan tahlillar sug‘urta tashkilotlari faoliyatida ko‘plab operatsion, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy va huquqiy xatarlarning mavjudligini ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda, bu xatarlarning barchasiga qarshi choralar ko‘rilmoqda, lekin ularni yagona va kompleks boshqaruv tizimi doirasida hal qilish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Xatarlarni integratsiyalashgan boshqaruv tamoyillariga asoslangan tizim suğurta tashkilotlariga risklarni erta aniqlash, ularni baholash, ularning oqibatlarini bashorat qilish va samarali choralar ko‘rish imkonini beradi. Xalqaro tajribalar (masalan, Solvency II, ORSA – Own Risk and Solvency Assessment, ERM – Enterprise Risk Management) bunday tizimlarning sug‘urta sektoridagi barqarorlik va investitsion jozibadorlikni oshirishi mumkinligini ko‘rsatgan.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Xatarlarni integratsiyalashgan identifikatsiya va monitoring tizimini yaratish

Sug‘urta kompaniyalarida ichki xatarlar xaritasi va risk-reyestrlarini shakllantirish;

Har chorakda xatarlar monitoringi va baholash mexanizmlarini avtomatlashtirish.

Aktuar tahlil va stsenariyli modellashtirishni keng joriy etish

Potensial moliyaviy yo‘qotishlarni baholashda zamonaviy statistika va ehtimollik modellari asosida tavakkal tahlilini olib borish;

"Stress-test" va "what-if" tahlil usullarini qo‘llash orqali qaror qabul qilishni asoslash.

Integratsiyalashgan xavf boshqaruv tizimiga asoslangan korporativ boshqaruv

Har bir sug‘urta kompaniyasida Risk-komitetlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va xatarlar boshqaruvi bo‘yicha mustaqil strukturani tashkil etish;

ERM (Enterprise Risk Management) tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali barcha strukturaviy bo‘linmalarda xatarlar uchun mas’uliyatni aniq belgilash.

Xatarlar bo‘yicha hisobot berish va solvensiya monitoringini takomillashtirish

Moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish uchun Solvency II kabi standartlar asosida kapital yetarliligi va risklar to‘g‘risida ochiq hisobot berish tizimini yo‘lga qo‘yish;

Sug‘urta nazorati organlarining riskga asoslangan nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xodjamuratova G.Yu., Risklarni boshqarish. Darslik. –T.: Innovattsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi 2021. – 214 b.
2. Jumaeva G.J.,Djalilov R.X., Rashidov R.I. . O’quv qo’llanma. Sug’urta nazariyasi va amaliyoti.VNESHINVESTPROM nashriyoti-T.: 2019. 268-b.
3. Abduraxmonov I., Sug’urta nazariyasi va amaliyoti. O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 416 b.
4. Shennaev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.E., Kenjaev I.G’. Sug’urta ishi. O’quv qo’llanma.T.: Tafakkur-bo’stoni, 2014. 272 b.
5. Андреева Е. В. Страхование: курс лекций. – Иркутск: Изд-во БГУ, 2015. – 263 с.
6. Разумовская Е.А., Фоменко В.В. Страховое дело: учебное пособие. – Екатеринбург: Гуманитарный университет, 2016. – 249 с.
7. Тарасова, Ю. А. Страхование: Учебник и практикум для прикладного бакалавриата. – М.: Издательство Юрайт, 2018. – 236 с.

8. Jack Kinder Jr. Garry Kinder “Secrets of Successful Insurance Sales”, Napoleon Hill Foundation, UK, 2012.
9. www.napp.uz – O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi
10. www.lex.uz – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
11. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasining rasmiy sayti